

## XALQ RAQSLARINING XILMA XILLIGI

**Mumtozbeginm Turg'unova Xoreografiya**

jamoalar rahbari 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar; **Abduhamidov Akmal**

O'z DSMI FMF "Xoreografiya" o'qituvchisi

**Anatatsiya:** Xalq asrlar davomida raqs san'ati an'alarini shakillantirgan, avlodlarga me'ros qilib qoldirilgan. Xalq raqsi xalq ijodiyotining eng qadimgi ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Har bir xalqning o'z qo'shiq uslubi, tili, madaniyati, liboslari bor shu kabi yana ko'plab jihatlari bilan ajralib turadi.

**Kalit so'zlar:** raqs, harakatlar, ritmika, joziba, xilma xillik, boltiqbo'yi litva raqsi, latish va eston raqsi.

Bolitiqbo'yi xalqlarining raqslari Litva raqsi

Litvaliklar o'z an'ana va madaniyatlari bilan juda faxrlanishadi. Ular uzoq yillar davomida o'z madaniyatini, milliy xarakterini, san'ati va musiqasini, ashula va raqslarini saqlab qolganlar. Bugun bu yerda ajoyib ijrodagi mumtoz musiqani ham, xalq qo'shiqlarini ham eshitish mumkin. Litva folklori qishloq urf-odatlarini va an'alariga asoslanadi. Qo'shiq va raqslar xalq an'anasining ajralmas qismi. Litvaliklarda oilaviy, tarixiy, harbiy, emmigrantlar, beshik, to'y marosimlari qo'shiqlari mavjud. Litvaliklar pichan o'rimida ham, hosilni yig'ishtrishda ham, zig'irga ishlov berishda ham, tegirmonda ham, ip yigirishda ham kuylashgan. Ular har doim raqsga tushishni yoqtirishgan. Yoshlar yozda dalalarda, qishda esa uylarda raqsga tushishgan. Ushbu tadbirlarda kattalar ham, bolalar ham ishtirok etishgan. Odamlar yig'ilib suhbatlashganlar, kuylab jamolarga bo'linib raqsga tushganlar.

Raqs litva folklorida asosiy unsur (element). Litva xalq xoreografiyasi o'zida polifonik ashulalarni, raqslarni, xorovod va o'yinlarni jamlagan. Uning noyoblighi shundaki, xalq xoreografiyasi foydalaniladigan musiqa xarakterida aks etadi. Litva raqsining ritmi juda lirik bo'lib, juda mayin, vazmn tempga ega. Raqsar juda lirik va hikoya qilish xarakteriga -ega.

XX- asrga qadar xalq raqsari haqida juda kam yozilgan. Raqsarining bor yo'g'i ma'lum bir parchalari tavsiflangan, xolos. Faqatgina ularning nomi va umumiy tuzilishi haqida ma'lumot bor, musiqa, qadamlar va harakatlar yozib olinmagan.

Litva raqsidagi asosiy harakatlar o'ziga xos va bejrim usluda bo'ib, quidagilarga bo'linadi:

1. Qo'llar holati.
2. Yurishlar va asosiy harakatlar: yengil yurish, sakrab qadam tashlash, «galop», «polka», oddiy yonlama yurishlar, teranma yurish.

#### Latish raqsi

Latish xalq xoreografiyasi Latviyada krepostnoylik huquqi bekor qildingandan keyin boshlandi, kishilar orasida erkin muloqot qilish imkoni yaratildi. Taxmin qilinishicha, latish xoreografiyasining asosiy xususiyatlari asosan XIII-asrga qadar - tashqi bosqinchilar bosqinigacha ham shakllangan. Bu raqsning xarakterli belgilari: harakatlar 2/4 o'lchamdagi qo'shiq va kuylar bilan jo'r bo'ladi. Ming yillar davomida maishiy raqsar saqlanib qolgan, ular ibtidoiy turmush tarzini, odamlarning raqsar tushish va kuylash ehtiyojini, har bir davrning umumiy xoreografik tafakkurini ifodalab yaqqol ko'rsatib bergan. Shu sababli ham o'sha uzoq yillarda yaratilgan raqsar hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Bayramlarda ijro etiladigan, fasllarni kutib olish va kuzatishga bag'ishlangan raqsarining kelib chiqish tarixi juda uzoq. Bir qator raqsarining nomlanishi raqs yaratilgan joy nomi bilan bog'liq: «Alsungiyetis», «Liteniyetis», «Ruaviyetis».

Juftlikda ijro etiladigan raqsar soat miliga qarshi tomonga doira bo'ylab ijro etiladi. Odatda, ularda to'rt yoki sakkizia juftlik ishtirok etadi. Musiqiy o'lcham: 2/4,4/4,3/4,6/8. Raqsning asosiy harakatlari murakkab emas: oddiy qadam tashlash,

yugurish, sakrash, galop, polka va boshqalar bilan bajariladi. Latish raqslari xarakteriga ko'ra odatda sokin, darajali, keskin harakatlarsiz, qarama-qarshi o'tishlarsiz va ritmlar almashuvvisiz ijro etiladi.

Latish raqsidagi asosiy harakatlar

1. Qo'llar harakati

2. Yurishlar va asosiy harakatlar: yengil yurish, sakrashli yurish, oddiy qadam tashlashlar, bir oyoqqa egilishlar, oyoqdan oyoqqa sakrashlar, galop, polka», sakrashli o'zgaruvchan yurish, gavdani qayirishda tovonni tovonga uruvchi o'zgaruvchan yurish vas hu kabi ko'plab bejrim harakatlarni o'z ichiga oladi.

Eston raqsi

Qadimiy Eston raqslarida ashula, dudochkada yoki "kannel" degan xalq cholg'u asbobidagi musiqa jo'r bo'ladi. Keyinchalik volinka ommalashib ketdi. 19-asr boshida eston xalqining madaniy hayoti ancha o'zgardi, xalq hayotiga qo'shni mamlakatlarning raqslari kirib keldi. Xususan, Estoniya madaniyatiga rus madaniyati va rus raqslari kuchli ta'sin ko'rsatdi. Eston raqslarida biror-bir improvizatsiyaga yo'l qo'yilmaydi, qadamlar va harakatlarning barcha tartibi qat'iy tarzda saqlanadi. Eston raqslari aralash uslubi bilan xarakterlanadi. 1926-yilda Anna Raudkats (1886-1965) eston xalq raqslari haqida kitob e'lon qiladi, unda xalqni eston raqsi tarixi ibilan tanishtirish, kechki bazm va uchrashuvlarda ularni ijro etish maqsad qilib olingan edi. Xalq raqsi Estoniyada deyarli sport bilan teng bo'lib qolgan, ularda barcha ishtirokchilar jiddiy harakat qilishi kerak. Oqibatda esa qulaylik va birlik yaratuvchi hissiyot yo'qola boshlagan. Bu narsa 20-asr oxirlarida raqs klublarining paydo bo'lishi bilan bog'lanib ketadi. Bunday tadbirlarda odamlar asosan raqs festivallari uchun qattiq mehnat bilan va madaniyat bilan tayyorgarlik ko'rishgan.

Eston raqsidagi asosiy harakatlar

1. Qo'llar harakati.

2. Yurishlar va asosiy harakatlar: yengil yurish, sakrashli yurish, sirpanishli yurish, polka», oyoqda taqillatish bilan vals tushish vas hu kabi takrorlanmas bejrim harakatlarni o'z zimmasiga oladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. A.A Magdiyeva “Xalq sahna raqsini o‘rganish uslubiyoti”.
2. Klimov A.A “Rus xalq raqsi asoslari” Xoreograf talabalar uchun darslik.
3. Sinitsina N.V “Raqs va o‘qitish usullari”. Xalq sahna raqsi. Xalq badiiy ijodiyoti.xoreografiya ixtisosligi talabalari uchun, fanlari bo‘yicha uslubiy qollanmalar.